

2014 yil yanvar-sentyabr oylarining yakunlari bo'yicha "O'zkimyosanoat" DAK korxonalari faoliyati to'g'risida

// 23.10.2014

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/itogi20149>

2014 yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha "O'zkimyosanoat" korxonalarida **1479** mlrd. so'mlik tovar mahsulot (o'sish sur'ati 104,1%) hamda **140,7** mlrd.so'mlik xalq iste'mol mollari (o'sish sur'ati 129,5%) ishlab chiqarildi.

Sof holda **881,91** ming tonna mineral o'g'itlar, shu jumladan **718,55** ming tonna azotli o'g'itlar, **101,72** ming tonna fosforli o'g'itlar va **61,64** ming tonna kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarildi.

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq 2014 yil yanvar-iyun oylarida **153,5** mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi (prognoz 98,8 mlrd.so'm).

2014 yil Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni bajarish doirasida "O'zkimyosanoat" DAK korxonalari tomonidan **58,12** mln.dollar hajmida investitsiyalar o'zlashtirildi va prognoz 101,1%-ga bajarildi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjada tuzilgan shartnomalarga binoan **143** mlrd.so'mlik mahsulot kompaniya korxonalari tomonidan sotib olindi (prognozga nisbatan 103,2%).

468 yangi ish o'rni, shu jumladan kasanachilik asosida **61** ish o'rni yaratildi.

Xududiy «Qishloqxo'jalik kimyo» aksiyadorlik jamiyatlaridagi mavjud texnikalar yordamida qishloq xo'jaligi korxonalariga 2014 yil yanvar-sentyabr oylari davomida **36,8** mlrd.so'mlik agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatildi. Jumladan: **968,1** mln.so'mlik **69,8** ming tonna kompost tayyorlandi va sotildi, **163** ming tonna organik va **497,2** ming tonna mineral o'g'itlar fermer xo'jaliklari ekin maydonlariga yetkazib berildi.

1135,6 ming gektar paxta va g'alla maydonlarida mineral o'g'itlar sepilib, 2 marotaba suspenziya hamda **1136,8** ming paxta maydonlarida defoliatsiya tadbirlari o'tkazildi.

"O'zkimyosanoat" DAK matbuot xizmati